

O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Samarqand davlat arxitektura kurilish instituti

“KASB TA'LIMI” kafedrası

Pedagogika.Psixologiya fanidan

PEΦEPAT

Mavzu: Talabanning o`quv-bilish faoliyati (motivlar)

Bajardi. Egamberdiyeva N

Tekshirdi. Qarshuboyeva R

Samarqand- 2016 yil

Mavzu: Talabanning o`quv-bilish faoliyati (motivlar)

REJA:

- 1. O`qitish mazmunini loyihalash**
- 2. O`quv jarayonini tashkil etish va boshqarish tizimini loyihalash**
- 3. Natijalarni baholash tizimini loyihalash.**

O`quv jarayonini tashkil etish va boshqarish tizimini loyihalash.

Zamonaviy psixologik-pedagogik fanlar erishgan yutuqlarga binoan istalgan o`quv jarayoni uchta bir-biri bilan bog`liq qism (komponent)dan iborat: 1. Motivlar (M) 2. O`quvchining o`qish (o`zlashtirish) faoliyati (O`F); 3. O`quvchining bilish faoliyatini boshqarish (B). Boshqarish vazifasini muallim yoki texnik vositalar bajaradi. Demak, didaktik (o`quv) jarayonni (DJ) quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin:

$$\mathbf{DJ = M+O`F+ B}$$

O`quv jarayoni qismlaridan har birida (M,O`F,B) qanday pedagogik maqsad nazarda tutilganiga qarab ta`lim-tarbiya jarayonining turli metodika (texnologiya)lar xosil bo`ladi. Bunday metodikalar soni juda ko`p bo`lishi mumkin. Ta`lim-tarbiya vazifasini yechish qo`lay bo`lishi uchun mavjud texnologiya (metodika) lardan qay birini tanlash ma`lum mezonlar asosida amalga oshiriladi. Shuni esda tutish lozimki, ta`limning maqsadi va o`quv jarayonlari o`zaro bir-biriga aynan mos bo`lishi kerak: har bir diagnostik maqsadga ma`lum bir ta`lim-tarbiya jarayonida erishish mumkin va xar bir o`quv jarayonda erishish mumkin bo`lgan maqsad qo`yilishi zarur. Pedagogik texnologiyalarning bir qismlarini ishlayotganda tabiatga moslik prinsipi va o`quv jarayonini jadallashtirish prinsiplariga rioya qilinadi. Tabiatga moslik prinsipi – ta`lim-tarbiya jarayonini o`quvchining bilim o`zlashtirish qobiliyati va aqliy kuchlari o`sishiga ko`prok mos kelishini nazarda tutadi. Bolaning o`qishga bo`lgan hohish va qiziqishi ta`lim va tarbiyaning tabiatga uyg`unligining ko`rsatkichi xisoblanadi.

O`quv jarayonining jadallik prinsipi didaktik vazifani tezrok va yuqorirok darajada ruyobga chiqarishni, oz vaqt va kam kuch sarflab, ko`prok samara olishni nazarda tutadi. O`quvchining bilim o`zlashtirish tezligi (s) jadallik prinsipining ko`rsatkichi xisoblanadi.

O`qish motivlari. Pedagogik – psixologik adabiyotlarda “motiv” tushunchasi quyidagicha izoxlanadi: agar ta`lim-tarbiya jarayonida o`quv ishi

(vazifasi) talaba uchun biror shaxsiy qimmatga ega bo'lsagina, kishida unga qiziqish uyg'onishi va ta'lim maqsadi shaxsning o'z extiyojiga aylanishi mumkin. "Motiv" tushunchasi extiyoj, intilish, mayl, qiziqish kabi ma'nolarni xam anglatadi. Motiv- kishini biror ish-xarakterni bajarishga undovchi da'vat, turtki xisoblanar ekan, muallimlar bolada o'qishga motiv xosil qilishga intilishlari, o'quv jarayonida uni xisobga olib, o'stirish va boshqarishlari zarur. Shuni ta'kidlash lozimki, kishi nima uchun yaxshi o'qiydi, yoki nega o'qigisi kelmaydi, degan savolga aniq, tug'ri javob berish oson ish emas.

Biror ish - faoliyatiga motiv xosil qilish -bu murakkab ruxiy jarayondir. Motivlarni shakllantirish masalasi individual - shaxsiy xususiyatga ega bo'lib, ta'limning maqsadi, vaziyati bilan o'qishni tashkil etish shakllari, usullari mutanosibligini taqozo qiladi.

O'quvchida bilim olishga intilish (motiv) uyg'otish-ijodkor o'qituvchilarga hos husisiyatdir. Bolada o'qishga motiv xosil bo'lganini kursatuvchi muxim belgilardan biri - o'quv topshirig'ini bajarishga tezda, astoydil kirishib ketishi, o'qishga bo'lgan qiziqishining barqarorligidir. O'quvchining bilim olish motivlari kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Motivlar o'z-o'zidan paydo bo'lavermaydi. Motiv hosil qilishning turli yullari, usullari mavjud.

Motiv xosil qilishning oddiy usullaridan biri - sinfdagi mashg'ulot yoki darslikdagi matnning qiziqarliligi. "Qiziqarli fizika", "Qiziqarli ximiya" (mujizasiz mujizalar) kabilar bunga misol bo'ladi.

Mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, yoki shu mavzuni o'rganishda kishi xayoti uchun ahamiyatli bo'lgan o'quv-bilish vazifalarini ko'ya bilish - motiv xosil qilish usullaridan biridir. Fizika, ximiya, matematika, adabiyotni o'rganishda xayotiy muammolarni xal etishga doir o'tkir vaziyatlar ko'prok uchraydi.

Bola kelgusida kasb-hunar egallashi, jamiyatda obruli bo'lishi uchun bu predmetni yaxshi egallashi zarurligini anqlash-motiv xosil qilishning muxim usullaridan hisoblanadi.

Ta'lim olishning maqsadi mavxum, noaniq bo'lsa, o'quvchi bilim olishga qiziqmay qo'yadi, muallimlar, ota-onalar bolalarning o'qigisi kelmaydi, deb nolib yuradilar. Bu o'quv jarayonining motiv xosil qilish bosqichi bo'lishligidan dalolatdir. Bunda bola muallimning talablarini tushunmay, xafsalasiz xolatda o'quv topshiriqlarini nomigagina bajaradi.

Demak, ta'limning maqsadi har bir o'quvchining aniq bir kasbni (mutaxassislikni) egallashiga yunaltirilgan bo'lsa, o'quvchida shu kasbni egallash uchun kerak bo'ladigan fanlarni, bilimlarni egallashga mayl, qiziqish - motiv xosil bo'lishi uchun qo'lay sharoit yaratiladi.

Talabaning o'quv-bilish faoliyati. O'quvchining bilimni o'zlashtirish uning o'quv-biluv faoliyati bilan uzviy bog'likligiga endi hech kim shubxa qilmaydi. Pedagogika tarixidan ma'lumki, eski maktablarda, shuningdek Yevropada XIV - XV asrlargacha sxolastik ta'lim tizimi xukumron bo'lib, bola o'quv predmetining asosiy qoidalarini o'qituvchidan eshitib urganardi. Chunki, - o'qituvchining so'zi o'quvchi uchun axborot olishning yagona manbai bo'lgan.

XVII asrdayoq Ya.A.Komenskiy sxolastik ta'limning samarasi juda past ekanligini isbotlagan edi. Sxolastik ta'lim o'rnini ko'rsatmali o'qitish usuli egalladi: "yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal". Lekin ko'p o'tmay, ko'rsatmali ta'lim berish usuli ham optimal (samarali) emasligi ma'lum bo'ldi va bilim olishdi o'quvchi faoliyatini tashkil etish usuliga o'tildi: "ish-xarakat bajarilayotganini yuz marta ko'rgandan uni bir marta bajargan yaxshi" degan xulosaga kelindi.

Faoliyatli yondashuv ta'lim jarayonini tashkil etishning xilma-xil usullarini vujudga keltirdi. Bilim olish uchun motiv xosil qilish bilan birga talaba materialini o'zlashtirishga imkon yaratadigan o'quv-biluv xarakterlarini xam bajarishi zarur, ya'ni o'quvchining o'zi faoliyat ko'rsatib o'qimog'i kerak. Muallimning vazifasi - bilim olishning qo'llay texnologiyasi (usuli) ni tanlab, o'quvchilarga uni bajarish yullarini ko'rsatishdan iborat.

Xozirgi, zamonaviy pedagogika fanida ta'limni (faoliyatni) tashkil etishga bir qancha psixolo-pedagogik g'oyalar mavjud. Ularni umumlashtirib, talaba o'quv-biluv faoliyatining bir necha tiplarini ifodalash mumkin:

1. Agar ta'lim maqsadi birinchi darajadan yuqori bo'lmasa (o'quv materialini a1 darajasida o'rganish lozim bo'lsa), o'qish reprodaktiv tipda tashkil etiladi. Reprodaktiv ta'limda o'quvchining faoliyati muallimning so'zlarini diqqat bilan tinglash yoki darslik bilan ishlashdan, yoki o'rganilayotgan obyektlar, xodisalarni kuzatishdan, ko'rsatmaga binoan biror amaliy xarakatni tajriba tariqasida bajarishdan iborat bo'ladi. Shu ish-xarakatni barcha o'quv elementlarini bilib olish uchun bir necha marta bajarish - uni yuo'qorirok koeffisient (K1) darajasida o'zlashtirishga olib keladi. O'zlashtirish koeffisienti 0,7 (K1-0,7) bo'lsa, ya'ni o'quvchi test vazifa (topshiriq) larini 70 foizini tug'ri bajarsa, ta'lim tugallangan hisoblanadi, chunki talabaning o'quv elementlarini o'zlashtirish bo'yicha keyingi faoliyati K1 darajadan yuqorilasha boradi.

2. Ta'lim maqsadi a II (o'zlashtirishning ikkinchi darajada) bo'lsa, talabaning o'quv-biluv faoliyati yuqoriqroq shaklda bo'lishi, ya'ni faoliyat (ish - xarakat) ning asosiy algaritmlarini ongli va mustaxkam esda qoldirishni ta'minlashi lozim. Bu darajada talaba o'quv materialini qayta ifodalay olishi, tanqidiy mushoxada yuritishi, vazifani bajarish variantlaridan rasional usulni tanlay bilishi kerak. Ta'limning bu tipda o'quvchiga o'quv materialidan konspekt, referat

tayyorlash, munozarada so'zga chiqish, ma'ruza qilish, barcha o'quv elementlariga oid masalalarni yechish, didaktik o'yinlarda qatnashish tavsiya etiladi. 2-daraja testlarni bajarish koeffisienti $K_{II} = 0,7$ bo'lsa, 2-darajadagi ta'lim (o'zlashtirish) tugallangan xisoblanadi.

3. O'zlashtirishning 3-darajasi (a-III) ga erishish uchun talabaning o'quv-biluv faoliyati tadqiqiy, evristik shaklda tashkil etiladi. Buning uchun talaba o'quv materialini avval 1-va so'ngra 2-darajada o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Bu darajada o'quvchidan o'quv-biluv faoliyatining izlanish (evrestik) xarakterlari qilishini talab etadigan muammoli o'qitish (ta'lim), ish uyinlari, biror ishni real muljallab (loyxalashtirib) bajarish kabi didaktik vazifalarni bajarish o'rinli bo'ladi.

4. Nixoyat, ta'lim maqsadi 4-darajada o'zlashtirishni ko'zlaganda, masalan, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash kabilarda o'quv jarayoni tadqiqot natijalari va metodikasini taxlil etish bo'yicha munozaralar, muammoli vazifalarni qo'ya bilish, individual va jamoa bo'lib tadqiqot ishlarini bajarish kabi shakllarda tashkil etiladi.

O'quv - bilish faoliyatini boshqarish. Talabada ta'lim maqsadiga mos keladigan uo'qish motivlari mavjudligi va o'quv-bilish faoliyatining shakllari tug'ri tanlanganligining o'zi bilim olishning mulajllangan (loyxalashtirilgan) natijalarini egallashini kafolatlay olmaydi. Ta'lim jarayonini boshqarish usuli xam tug'ri tanlangan taqdirdagina o'quv jarayoni tugallangan xisoblanadi. O'quv jarayonini boshqarish zarurligi insonning tajriba (bilim) o'zlashtirishning xususiyatidan kelib chiqadi. Gap shundaki, ko'pgina o'quvchilar o'zlashtirishning 1-darajasida $0,5$ ($K_{I-0,5}$) koeffisientda o'zlashtirganlarida (chala-chulpa o'zlashtirilganda) yoq - "bo'lib oldim" deb xisoblaydilar - "aldanish" sodir bo'ladi, ya'ni bunda talabaning keyingi o'quv-biluv faoliyati samarasiz bo'ladi. Shuning uchun xam o'quvchi muljallangan barcha ish xarakterlarni to'liq bajarganini, o'zlashtirish sifatini nazorat qilib borish, amallardagi xatolarni tuzatib borish zarur.

O'zlashtirish jarayonini boshqarishning eng oddiy usuli – o'zlashtirish sifatini testlar yordamida vaqti-vaqti bilan nazorat qilib, tekshirib borishdir: xar bir mavzuni o'rganayotganda nazorat vaqti va usuli (test, amaliy ish kabilar) oldindan belgilab qo'yilishi, ya'ni o'quv jarayoni standartlashtirilishi (shu bilan birga o'qituvchining ijodiy ishlash imkoniyati xam saqlanishi) lozim.

Shuni nazarda tutish kerakki, ta'lim jarayonlarining barchasi uchun ish-xarakterlarni o'zlashtirishning yagona, eng yaxshi usuli mavjud emas, chunki kishilarning aqliy qobiliyat va imkoniyatlari xilma-xildir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, kishi, xatto ta'lim yomon tashkil etilgan sharoitlarda xam, zarur axborotlarni bilib, o'zlashtirib olishi mumkin. Yomon tashkil etilgan ta'lim jarayoni deganda talbaning o'quv-biluv faoliyatida, xarakterlarida o'zlashtirishning a I darajasidan izchil ravishda a II, a III, a IV ga qarab berishga amal qilmaslik

nazarda tutiladi: masalan, muallim yangi o'quv materialini tushintirayotganda (o'zlashtirish xali K1 – 0,2 - 03 bulgandayoq) murakkabroq (a II, xatto a III darajasidagi) vazifalarni bajarishni taklif etadi. Vazifani o'quvchi bajara olmasa, bu, bolaning xafsalasizligi, qobiliyati yo'qligi tarzida baxolanadi, xech kim buning sababi, o'qituvchi o'quv jarayonini xato tashkil etganida ekanligini xayoliga keltirmaydi. Bu yerdagi farq o'zlashtirish tezligi va sifatida bo'ldai, lekin bilim o'zlashtirish jarayoni davom etaveradi, uni xech kim tuxtatib qololmaydi. Shunga ko'ra o'zlashtirish algoritmini ifodalashga nisbatan bir qancha yondashuvlar vujudga kelgan.

Bilim o'zlashtirishda talaba bajaradigan ish-xarakatlar o'zlashtirishning turli nazariyalariga binoan o'qituvchi tushuntirishga yoki darslikdagi kursatmaga asoslanadi. Ko'pincha o'qituvchi qaysi nazariyaga asoslanayotganini o'zi aniq aytolmasligi mumkin. Psixologiya, pedagogika fanlarida quyidagi ta'lim nazariyalari mavjud: oddiy muloqat nazariyasi; assosiativ nazariya, bixeviorizm ta'limoti, Geshtalt nazariyasi, aqliy ish-xarakatlarni bajarish bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi kabilar. Ta'lim jarayonini samarali bo'lishi o'qitish shaklining zamonaviy nazariyalarga qay darajada asoslanishiga bog'lik. Zamonaviy ta'lim nazariyalarini taxlil qilish va taqqoslash o'quv faoliyatining umumiy formulasini aniqlash (belgilash) ga imkon beradi.

O'quv faoliyatining umumiy formulasi o'zlashtirishning turli nazariyalari va faraziyalariga o'qiladigan va izchil mashqlar tizimidan iborat bo'lgan, ya'ni bo'lak-bo'lak o'quv-biluv xarakatlarining izchilligi - shu nazariyada **bajarilish algoritmini** xosil qiladi.

Bajarilish algoritmining xar bir qismi ta'lim jarayonida o'zlashtirish darajalari bo'yicha izchil xarakatlardir. Xarakatning xar bir "qadami" va shu "qadamning" mazmuni o'zlashtirish jarayoni asoslanadigan nazariyaga bog'liq. O'zlashtirish tanlash usuli va sifat mezonini –o'qituvchining pedagogik faoliyati uchun muljal bo'lib, uning pedagogik texnologiyasini tavsiflaydi.

Psixologiya fanida o'zlashtirish nazariyalaridan ikkitasini algoritmlar ko'rinishida ifodalash mumkin.

1. Bosqichma – bosqich shakllanish nazariyasiga ko'ra o'zlashtirish jarayoni talabanning o'quv-bilish faoliyati sifatida qaraladi, xarakat shaklida amalga oshiriladi, ular xar bir mashqda aqliy amallardan iborat bo'lib, ma'lum izchillikda bajariladi.

O'zlashtirish paytida o'quvchining dastlabki muljal xarakati (MX) bajariladigan ishning qoida, usul (yul)larini va shu qoidaga binoan vazifani bajarishni muljallab olishidan iborat.

Ta'lim nazariyasida o'quv vazifalarini bajarish uchun xarakatlarni qanday tartibda, qaysi izchillikda bajarish tavsiya etiladi (maxsus kartochka yoki

qo'llanmada). Bu kartochkalar yordamida talaba xarakatlarni bajarib, ijro etib (IX) o'quv materialini o'zlashtira boradi. Xarakatlarni bu tariqa moddiylashtirish darslikda matn, sxema tarzida berilishi xam mumkin.

An'anaviy ta'limda talabanning o'quv-bilish faoliyati to'zilishiga nisbatan bosqima-bosqich shakllanish nazariyasida aqliy xarakatlarni bajarish algaritmi aniq o'rilganligi bilan ajralib turadi. Chunki mavjud ta'lim tizimida sinfda darslarda bola qo'l bilan biror ishni bajarmay, xatto muallim bilan birga muloxaza, fikr xam qilmay qanchadan qancha soatlarni befoyda, zerikib o'tkazadi. O'quvchilik yillarida shakllangan aqliy va amaliy yalqovlikdan kishi kelgusida qo'tilishi oson kechmaydi, ba'zan bunday yomon odat keyingi o'qish va mexnat faoliyatida saqlanib xam qoladi.

2. Ta'lim nazariyasining bir-biridan farqini ko'z oldiga keltirish uchun keng tarqalgan Amerika nazariyalaridan biri - **bixeviorizm ta'limotini** ko'rib chiqaylik. Bu nazariya bilan tanishishning axamiyati shundaki, birinchidan Amerikalik pedagog va psixologlar o'quv-bilish faoliyatining to'zilishiga katta e'tibor berayotganliklari; ikkinchidan, muallimlar tajribasida uchraydigan mexanik ravishda ko'p marta takrorlab, yodlab olish oddiy bixeviorizmga juda o'xshab ketishi ma'lum bo'ladi.

Bixeviorizm ta'limotiga ko'ra o'zlashtirishning umumiy formulasi tubandagicha: $S - R - P$

Bunda S - stimul xarakat qilishga undovchi sabab yoki xarakat qilish lozim bo'ladigan vaziyati; masalaning shartlari, savol, signal kabilar stimul bo'lishi mumkin;

R - reaksiya, ya'ni stimulga javob xarakati, savolga javob berish, masalani yechish, jismoniy xarakat kabilar reaksiya xisoblanadi;

P - tug'riligini tasdiqlash, ma'qullash; ish-xarakat to'g'ri bajarilganini dalillash, stimulga javob to'g'riligini ma'qo'llash; bu oddiy yoki ma'naviy rag'batlantirish yo'li bilan bildiriladi; masalan, xayvonlar buyurilgan xarakatni tug'ri bajarsa, shirinlik yoki boshqa biror ozuqa bilan rag'batlantiriladi; bixevioristlarning fikricha odamga ta'lim berayotganda og'zaki ma'qo'llash, bazho qo'yish; bosh, qo'l, ko'z xarakati bilan tasdiqlash kabilar shunga kiradi.

R - ma'qo'llash, rag'batlantirish bixevioristiklar xayvonlar ustida tajribalar o'tkazib ishlab chiqqan o'zlashtirish formulasida eng muxim xisoblanadi, xayvonlarni o'rgatishda u juda qo'l keladi. Insonga nisbatan bu xulosani absalyutlashtirishga ayrim psixologlar shubxa bilan qaraydilar.

Shunga qaramay bixevioristlarning ta'lim jarayonida har bir amal bajarilishini nazorat qilib va ta'lim etaplarida yul qo'yilgan xatolarni tuzatib borish zarurligi haqidagi xulosalari ta'lim nazariyasi va amaliyoti uchun muximdir. Bu xulosani ular ta'lim prinsipi darajasigacha ko'rsatadilar. Shu qoida asosida ular

dasturlashtirilgan ta'lim metodikasini ishlab chiqdilar. Unga ko'ra har bir o'quv matnini quyidagi qoidalarga binoan tuzishni taklif etadilar:

S - R birikma (birligi) sida esda qoldirish uchun o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga ajratish;

- o'quv elementlarini faoliyatda (xarakatda) gi har xil ko'rinishlarga qarab chiqish, ya'ni shu o'quv elementidagi barcha birikmalarini aniqlash;

- "nazorat - tuzatish" amali yordamida javob xarakati to'g'riligini darxol ma'qullash, rag'batlantirish;

- har xil mashqlarni ko'p bajarish, takrorlash yo'li bilan S - R birikmasini o'zlashtirishning kamida 0,95 koeffisenti darajasida egallash.

Ta'lim usullarini klassifikasiyalash (turlash) o'quvchilar bilimini va ular faoliyatining xususiyatini tekshirish bu faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yishni ko'zda tutadi. O'quvchilar bilimini tekshirish va baholashdan maqsad o'quvchilar bilimining sifatini, rivojlantirish darajasini ta'minlash va ularni rag'batlantirishdan iborat bo'lib, bilim olishga qiziqishini takomillashtirishdir.

Bilimlarni tekshirish va baxolashdagi asosiy kamchiliklar:

- uning vazifalarini (funktsiyalarini) notug'ri tushunish;

- ta'lim jarayonida uning rolini asossiz ko'tarib yuborish;

- tekshirish va baxolashning darsda asosiy maqsadga aylanib qolishi;

- bilimlarni tekshirish va baholashda bir xil texnologiyadan foydalanish;

- baxolarni qo'yishda subyektivizmga yo'l qo'yish va aniq, asoslangan mezonlarning yo'qligi.

- o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashda bu jarayon nazorat qiluvchi, ta'lim-tarbiya beruvchi funksiyani bajarishni unutmaslik kerak.

Tekshirishning ko'p qo'llanilgan ikki xili mavjud: ular joriy va yakuniydir. Joriy tekshirishning xammaga ma'lum turlari quyidagilar: og'zaki surashning har xil shakllari, yozma uy vazifalarini tekshirish yozma nazorat (mustaqil) topshiriqlar. Biroq, bunday an'anaviy shakllar bilan bir qatorda turli perfokartalar yordamida tekshirish, kompyuter yordamida topshiriq bajarilishini tekshirish xam qo'llaniliyapti.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda tekshirishning zarur shakllarini izlash va uni qo'llash eng muxim vazifasi ekanligini unutmasligi kerak. Kimdan, qachon, qancha o'quvchini tekshirish, qanday savollar bilan, qanday vositalar orqali so'rash va baholash - bularning barchasini o'qituvchi darsga tayyorlanish payitida o'ylab chiqmogi lozim.

Tekshirish shakllari maktablarimiz ta'lim jarayoniga xos bo'lgan, o'quvchilarni bilimlarni faqat o'zidan qabul qilishi, reprodaktiv faoliyatini tashkil

etish bilangina tugamasligi lozim. Nazorat (tekshirish) shakllarini tanlashda o'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish muximdir.

Bilimlarni tekshirishning yozma va og'zaki shakllari to'g'risida gapirilganda, ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega ekani va o'z vazifasi borligini aytib o'tish darkor. Og'zaki shakli- savolni tez idrok etish (reaksiya) ko'nikmasini xosil qilish o'quvchilar xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. Yozma tekshirish esa mantiqiy mushoxada (fikrlash) ni samarali kengaytiradi, javoblarda aniqlik ko'prok bo'lishga o'rgatadi. Sunggi yillarda o'quvchilar bilimini va rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida turli test shakllarida keng foydalanilmoqda.

Bilimlarni baxolashga qo'yiladigan talablar. O'quvchilar bilimini baxolashda qancha xolis munosabatda bo'linsa, u o'quvchilarni shuncha rag'batlantiradi. Qoidaga ko'ra o'quvchining darsdagi hulq-atvoriga mukofat yoki jazo sifatida emas, balki bilimi darajasi va xususiyatiga qo'yilishi kerak. Bahoga qo'yilgan talablar optimal (oshirib yuborilmagan va pasaytirib yuborilmagan) bo'lishi lozim. baxolarni "oshirish" o'quvchilar rivojlanish darajasini pasaytiradi. Shu bilan birga juda katta talab qo'yish xam zararli bo'lib, o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. O'qituvchining alohida bir o'quvchilarga baxo qo'yishda salbiy munosabatga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Zero o'quv predmetiga muvofiq keladigan dastur baholashning eng xolis mezonini bo'lishi zarur.

O'quvchilar bilimini tekshirish va baxolashning an'anaviy tizimi jiddiy nuqsonlarga ega, negaki u ta'limiy, tarbiyaviy, diagnostik va rag'batlantirish funksiyalarini zarur darajada amalga oshirmaydi. Modomiki, shunday ekan, undan voz kechish yoki uni yanada takomillashgan shakliga almashtirish maqsadga muvofik emasmikan?

Pedagogik baholash bilimni dastur talablari va ta'lim andozalariga qiyoslab aniqlabgina qolmay, balki o'quvchilar bilim faoliyatini motivlashtiradi va rag'batlantiradi.

Yuqoridagilardan xulosa, shuki, baxoni bekor qilish pedagogik jixatdan xam, psixologik jixatdan xam o'zini oqlamaydi. Bunday qator kamchiliklari bo'lsada, besh ballik baxo tizimiga muqobil xili topilganicha yo'q. Shuning uchun, meningcha, gap uni takomillashtirish, o'quvchilar bilimini baholashda yo'l qo'ymaslik xaqida borishi kerak.

O'quvchilar bilimini baxolashda eng jiddiy xatolardan biri turli guruxlarga subyektiv yondashishdir. Bu o'qituvchi tomonidan ayni bir javob uchun, aynan bir ish uchun turli o'quvchilarni baholashdagi tafovutlarda aks etadi. Tafovutlar ba'zan ikki ballgacha tushadi. Yillar o'tishi bilan o'qituvchilardan o'quvchilar turli guruxlariga nisbatan muayyan tasavvur va unga muvofiq xolda munosabat shakllanib boradi. Bu narsa o'zlashtirgan va o'zlashtirmagan o'quvchilarga

munosabatda yorqin namoyon bo'ladi. O'qituvchilar bir xil o'quvchilarni (o'zlashtirayotgan) doim maqtaydilar, boshqalarni (o'zlashtirmayotgan) xamisha koyiydilar. Buning ustiga o'zlashtirmayotganlarga, odatda, o'zlashtirgan sinfdoshlariga nisbatan tez-tez va qattiq tanbex beradilar. Yanglish munosabati yana shunda namoyon bo'ladiki, o'qituvchilar yaxshi o'zlashtiruvchilarga nisbatan yomon o'zlashtiruvchi o'quvchilarni javob berishga kam taklif etadilar. Javobni o'ylash uchun ularga juda oz vaqt beradilar.

Mana bunday vaziyatga e'tibor qiling. Doska yonida past o'zlashtiradigan o'quvchi javob bermoqda. Ishonchsiz, o'rinsiz gapirmoqda. Bunday xolatda o'qituvchining munosabati qanday bo'ladi? U o'quvchi gapini shartta bo'lib, unga "ikki" qo'yadi va joyiga o'tkizadi: "Sen yana dars tayyorlamabsan", "Sen hyech odam bo'lmaysan", "Senga o'rgatsa xam, o'rgatmasa xam befoyda ekan" deb uni izza qiladi.

Endi boshqa vaziyatni ko'raylik. Doska oldida yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi bugungi darsga tayyorlanmay kelib, ishonchsiz xolda javob beryapti. O'qituvchi bunday vaziyatda o'zini qanday tutadi?

U o'quvchiga yordam berib, kamchiligini to'ldiradi, yoki unga javobni uylashi uchun imkon beradi. Ko'rinib turibdiki, bu ikki vaziyatda o'quvchi qarshisida yaxshi va yomon o'zlashtiruvchi bola to'rganiga qarab, o'zini turlicha tutayapti. Xar xil bolaga bunday munosabat ilgaritdan vujudga kelgan tasavvurning namoyon bo'lishi xisoblanadi. Keltirilgan misolda subyektiv munosabat namoyon bo'ladi. O'qituvchining bunday munosabati esa maktab baxosining ta'limiy, tarbiyaviy va rag'batlantiruvchi funksiyasini pasaytiradi.

O'qituvchi o'quvchining tez yoki sekin nutq sur'ati materialni bilishi yoki bilmasligi belgisi emasligini faxmlaydi. Vazminlik, bir ish turdan ikkinchisiga sekin o'tish sovuqqon mijozdagi o'quvchiga savolni tushunib olishi va unga javob tayyorlashi uchun ko'prok vaqt talab etiladi. Bunday o'quvchiga javob uchun qiziqqon mijozga nisbatan ko'proq vaqt kerak bo'ladi. O'qituvchi esa, sovuqqon o'quvchining vazminligini mutlaqo boshqacha tushunadi. Turli mijozga (temperamentga) mansub bo'lgan o'quvchilarga nisbatan xatto qilish umumiy baholash tizimining kamchiligi emas, balki o'qituvchining shaxsiy (subyektiv) xatosi, aniqrog'i, o'quvchilarning tipologik xususiyatlarini bilmasligi natijasidir.

Bolalarni bir-biri bilan shunday va umuman taqqoslash maqsadga muvofiqmi? Bunday taqqoslash past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'qishga qiziqishini kuchaytirishga yordam beradimi? Xuddi shu soxada psixologik tajriba o'tkazildi. O'quv yili davomida sinfda har bir o'quvchini o'zi bilan qiyoslab, o'qituvchi o'zlashtirish darajasi xaqida uning o'zigagina aytdi.

Umuman olganda, bolalarni bir-biri bilan taqqoslash, birinchi ikkinchisiga iborat qilib ko'rsatish - pedagogik tomondan xam, axloq-odob tomonidan xam

mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Darxaqiqat, tarbiyaning insoniy yo'nalishi bolani qanday bo'lsa shundayligacha qabul qilishni va ularning o'zini rivojlantirish va kamolatga yetkazish uchun shart-sharoit yaratishni ko'zda tutadi.

O'quvchi o'zini baxolaydi. O'quvchilar bilimini tekshirish va baholash masalasi to'g'risidagi munozaralar, ularni takomillashtirishning yangi shakllarni izlash, aksariyat xollarda noto'g'ri yunalishda olib borilyapti. Albatta, 10 ballik baho tizimini joriy etish yoki baxodan umuman voz kechib, tekshirishning turli shakllaridan, chunonchi sinov, imtixon, testlarni qo'llash mumkin.

O'z - o'zini baxolashni ta'minlovchi yullar qaysi? O'quvchilarning o'z-o'zini baholash kunikmasini paydo qilish uchun birinchi navbatda ularni o'z bilish faoliyatini baxolashga jalb etish lozim. O'z-o'zini baxolash quyidagi usullar bilan vujudga keladi:

1. Boshqalar bajargan ishni o'quvchi tomonidan, ya'ni o'quvchilarning o'zaro baxolashi, sinfdoshining o'zini-o'zi baxolash faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

2. Ishni bajargan o'quvchi o'ziga - o'zi baxo qo'yadi. So'ngi uning ishi o'qituvchi tomonidan baxolanadi, ikkala baxo qiyoslanib birinchi baxoning obyektivlik darajasi aniqlanadi.

O'qituvchi baxosidan so'ng o'zini-o'zi baxolashga o'tish o'quvchini o'qitishning faol subyekti qilishda juda muximdir. O'qitishda o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri, bu - o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarish xisoblanadi. Undan kelib chiqib, u o'quv - bilish faoliyatini rejalashtiradi, maqsad qo'yadi, uni motivlashtiradi, nazoratni boshqarish va baholashni amalga oshiradi.

- **uzluksiz ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni ishonchli, obyektiv bo'lishida** yangi pedagogik, psixologik texnologiyalarni izlash topish va uni amaliyotga keng joriy etish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini bajarish uchun yangi modellar yaratilmoqda. Milliy modelning komponentlari xam ishlanmokda. Bu komponentlar ichida yangi pedagogik texnologiyalar aloxida o'rin tutadi. Ta'lim tizimini xam mazmunan, xam tashkiliy jixatdan puxta bo'lishi ta'lim davlat standartlariga ko'p jixatdan bog'liq.

Ta'lim davlat standartlariga pedagogik texnologiyalarning qay usulda amaliyotga joriy etish bosqichlari aniq - ravshan ko'rsatilgan.

Avvalo, boshlang'ich sinflarda dars beruvchi o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar xaqida nazariy-amaliy tushunchalarga ega bulishlari kerak.

Texnologiya - to'zilma, didaktik maqsad, ya'ni vazifalarni belgilab olishdan boshlanib, ta'lim jarayoni bir butun yaxlitlikka yo'nalishini nazarda tutadi.

Ta'lim davlat standartida belgilanishicha bu jarayon 1-4-sinflar orasidagi uzviylikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchi to'rt yil davomida xar bir o'quvchini uzluksiz ta'lim tizimining ikkinchi bosqichida muvaffaqiyatli o'qib, ulgurishini maqsad qiladi va unga erishish yo'llarini izlaydi.

O'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi natijasida ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayon tarkibini topa olishi va uni amaliyotga joriy etishga muvaffaq bo'lishi, pedagogik maxoratning ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos xolda mustakil ravishda kengaytirib borishi zarur.

1-4-sinflarda joriy etiladigan yangi pedagogik texnologiyalar avvalo fanlar orasidagi bog'liklikni ta'minlash, bolalarni ortiqcha qiyinchiliklardan ozod etish, buning uchun fanlarni integrasiyalash, o'qukvchi faoliyatini tugri izga solish, vaktadn unumli foydalanish, sinfdan va sinfdan tashkari vaqtlarda bolalar orasida tashabbuskorlik muxitini yuzaga keltirish, erkin fikrlash, ijodiy izlanish tizimini yaratish kabi qator ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Boshlang'ich ta'lim jamitya taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib, takomillashib boruvchi ta'lim nazariyasiga tayangan xolda muntazam rivojlantiriladi va shaxsning jamiyat talablari asosida borishini nazarda tutadi.

Biz ilmiy izlavnishlar jarayonida bolani ezgulikka yetkazish, yoshlikdan unda insoniy ma'naviy barkamollikka eltuvchi xislatlarni shakllantirish o'qituvchining pedagogik maxoratiga ko'p jixatdan bog'likligini isbotladik.

O'qituvchi avalo bolalarda o'qish, o'rganish, ijod qilish, faollikka intilish istagni o'yg'ota olsa, bular bolaning sog'lom, erkin xushchaqchak, o'sishigia yordam beradi. Bolaning mustaqil fikrlash qobiliyati o'sadi. Sog'lom bola, albatta, berilayotgan bilimni qiynalmay o'zlashtirishga muvaffaq, bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini to'g'ri yo'naltirish dolzarb muammodir. Bu jarayon bola ruxiyati bilan uzviy bog'lik.

Bolaning xissiy bilish, ma'lumot va ko'nikmalarni qabul qilishga keng imkoniyat yaratish uchun unga erkinlik berish, uni o'ylashga, mushoxada qilib, so'ng fikrini jamlab gapirishga, bajargan ishi samarasini ko'rib quvonishga, yangi-yangi yutuqlarni egallashga yo'llash orqaligina kutilgan natijalarga erishish mumkin. Bu jarayonlarda bolaning ixtiyoriy diqqatni markazlashtirish o'ta foydalidir. Ixtiyoriy diqqat mexnat faoliyatida vujudga keladi va shakllanib, bolada qunt va chidam bilan ishlash ixtiyori yuzaga keladi.

Bolada turfa fazilatlarni shakllantirish uchun o'qituvchi amaliy yondashuv rejalarini tuzish, bu rejalarda bolani quvonoklikka. Topqirlikka undovchi vositalar jamlanishini uni xozirjavobgarlikka, tug'ri raqobat qila olishga yoki faraz qila olish qobiliyatini rivojlantirishga, tadbirkor bo'lishga, birinchi bo'lib tashabbus ko'rsata olish faoliyatini tarbiyalashga qaratilgan ishlar majmuasini yaratish, shuningdek, darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlarda bolalar orasida munozara, mushoira tanlovlar o'tkazish, eng yaxshi tadbirlarni gazeta va jurnallarda yoritish tajribasini qo'llash lozim:

- eskirib borayotgan usullar: uy vazifalarini ko'payishiga yo'l qo'ymaslik, uni me'yorlash, bola yoqtiradigan, sevib bajaradigan ish turlarini topish va ularni keng ko'llamda qo'llash;

- bolalar uchun eng qiziqarli faoliyat bo'lgan sayr-sayyoxatlar o'tkazishni qat'iylashtirish, ko'rganlarini taxlil qilish, o'tmish madaniyatimizga, tariximizga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish;

- kutobxonlik qobiliyatini barqarorlashtirish. Bolalarni yoshlik chog'laridan ifodali o'qishga o'rgatish, kitob xaftaliklarini muntazam uyushtirish;

- iqtisodiy ta'lim berish, insonning moddiy va ma'naviy extiyojlari xamda jamiyat talablarini kondirishga doir bilimlarni ko'proq, amaliy ishlar bilan bog'lash, burch xissini paydo qilish, mexnatsevarlik, xalollik, o'z mulki va davlat mulkini saqlash, tejamli bo'lish, "uvol", "isrof" so'zlarining ma'nosini idrok qilish;

- xuquqiy tarbiya berish: tartib, intizom, ma'suliyat kabi so'zlarning lug'oviy ma'nosi va ularni kundalik o'quv jarayonida, oilada xamda jamoat joylarida yodda saqlash va ularga amal qilish, irodali bo'lish, iltifot ko'rsata bilish, milliy g'urur xissini tarbiyalash, do'stlik-o'rtoqlik, baynalminallikni qadrlash, vatanparvar bo'lish;

- bolalarni ma'naviy barkamollikka yo'naltiruvchi tadbirlarni belgilash va ularni sinfda, sinfdan tashqari vaqtlarda o'tkazishni rejalashtirish;

- kompyuter savodxonligini ta'minlash rejasini tuzish, dasturlash kabi zarur bilimlarni singdirish;

- atamalar jadvallarini tuzish va xar bir darsda ulardan unumli foydalanish;

- o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun test savollarini tuzish va bunga o'quvchilar e'tiborini qaratish;

- muammoli ta'lim metodini keng qo'llash, bolalarda yoshlikdan ijodkorlikka faoliyatlarini barqarorlashtirish, bolalarning diqqatini markazlashtirish;

- o'quv dasturiga kiritilgan materiallarni uzlashtirib sifatini reyting usulida aniqlash, bolalarda o'z-o'zini nazorat qilish va boshqara bilish kabi sifatlarni paydo qilish;

- xar bir o'qituvchi sinf o'quvchilarining imkoniyat darajasiga qarab, qanday yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash mumkinligini avvaldan loyخالash kerak.

Bunda: kundalik, xaftalik, oylik, choraklik xamda o'quv yili davomidagi ishlarini oldindan belgilab olishi va ularni bolalar tomonidan ko'tarinki rux bilan ko'proq mustaqil ravishda sifatlil bajarilishiga erishishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. N.Shodiyev. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. Samarqand, SamDU nashri, 2003.
2. N.Shodiyev. Yangi pedagogik texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2005.
3. Abdukarimov X. Tarbiya ta'limga poydevor bo'lsa... "Boshlang'ich ta'lim" j., 1998, №1 24-25-bet.
4. Yo'ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya (yo'nalishlari, muammolari, yechimlari) - "Boshlang'ich ta'lim", 1999, №6, 2-5 bet.
5. Murodjonova Sh. Tarbiya nasixat qilish emas, namuna ko'rsatishdir. "Ma'rifat" gaz, 15.01.2000 y. (№5).
6. Nasriddinova D. Tarbiya - keng qamrovli muammo sifatida. - "Xalq ta'limi", 1998, №2, 59-62 bet.
7. Pedagogik izlanish - Toshkent, "O'qituvchi", 1991.
8. Pedagogik tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi Xasanboyeva O. Barkamol inson tarbiyachilari. - T., "O'qituvchi", 1993, V bob, 157-178 bet.